

"Tasdiqlayman"



Xarid va logistika bolimi
boshlig'i

Yusupov I.A.

ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH BO'YICHA XARID HUJJATLARI

GEM loyihasi press qoliplari joylash uchun metal stelajlar yasash

Farg'ona-2022 y.

MUNDARIJA

- I. Tanlash ishtirokchisi uchun ko'rsatma.
Xarid qilish hujjatlarining shakllari va ilovalari.**
- II. Ishtirokchiga qo'yiladigan mezonlar.**
- III. Tanlashning narx qismi.**

1-qism. Tanlash ishtirokchisi uchun yo`riqnoma

- 1. Umumiy qoidalar.**
- 2. Tanlashda ishtirok etish uchun kafolat.**
- 3. Tanlash tili, o'lchov birligi.**
- 4. Xarid komissiyasi.**
- 5. Xarid qilish hujjatlarining tarkibi.**
- 6. Takliflarni rasmiylashtirish. Tanlash takliflari konvertlarinirasmiylashtirish.**
- 7. Takliflar berish.**
- 8. Taklifning amal qilish muddati va valyutasi, xizmat ko'rsatish muddati va shartlari.**
- 9. Xarid qilish hujjatlariga o'zgartishlar kiritish.**
- 10. Ishtirokchilarga tushuntirishlar, o'zgartirishlar kiritish va / yoki takliflar berish muddatlarini qayta ko'rib chiqish va uzaytirish.**
- 11. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ochish, ko'rib chiqish va baholash.**
- 12. Shartnoma tuzish.**
- 13. Yakuniy qoidalar.**

E'TIBOR BERING!

Tanlashda ishtirok etish tashkilotning (kompaniyaning) ixtiyoriy qaroridir.

Ishtirok etish istagini bildirgan tashkilotlar yoki kompaniyalar barcha hujjatlarni diqqat bilan o'rganishlari lozim.

Xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan, talab qilinadigan axborot va hujjatlarni taqdim etmaslik qatnashchining diskvalifikatsiya qilinishiga olib kelishi mumkin.

To'g'ridan-to'g'ri qabul qilinmasa, hujjatlar va qo'shimchalarning to'liqligi uchun xaridor javobgar emas.

Tanlashda ishtirok etishga qaror qilgan tashkilotlar (kompaniyalar)ga g'alaba kafolatlanmaydi.

Tanlashda ishtirok etish huquqini boshqa yuridik shaxslarga o'tkazish taqiqlanadi.

Komissiya tomonidan Tanlash amalga oshmagan deb, e'lon qilinishi mumkin, agarda:

- hujjatlarni qabul qilish muddati tugagunga qadar birorta ham taklif kelib tushmagan bo'lsa;
- faqat bitta ishtirokchi tomonidan taklif kelib tushsa.

Qabul qilingan takliflarning hech biri tanlash hujjatlari shartlariga muvofiq bo'lmasa, Tanlashsalbiy natija bilan amalga oshirilgan deb hisoblanadi. Bunday holda, komissiya qarori bilan Tanlashni qayta o'tkazish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida" gi Qonunining 56-moddasiga muvofiq g'olibni aniqlash mezonlari nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida" gi Qonunining 45-moddasiga muvofiq davlat xaridlarini amalga oshirishda odob-axloq qoidalari tasdiqlangan, shu munosabat bilan xarid qilish tartib-taomilining barcha sub'ektlari ularni so'zsiz rahbarlik uchun qabul qiladilar.

Ushbu hujjatlarda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Tanlash - shartnomani ijro etishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan ishtirokchi g'olib deb topilgan raqobatbardosh xarid qilish tartib-taomilini amalga oshirish turi (bundan keyin matnda "Tanlash" deb yuritiladi);

Buyurtmachi-xaridning asosiy tashabbuskori, xaridor, davlat xaridlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxs (bundan buyon matnda "buyurtmachi" deb yuritiladi);

Xarid komissiyasi-xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda davlat xaridlari prinsiplarini amalga oshirish va qabul qilinayotgan qarorlarning mustaqilligini ta'minlash maqsadida tashkil etiladigan Tanlash o'tkazilishini amalga oshiruvchi doimiy organ (keyingi o'rinlarda "komissiya" deb yuritiladi);

Xarid qilish hujjatlari-taklifni tayyorlash maqsadida ishtirokchilar uchun taqdim etiladigan ko'rsatmalar, shartlar va talablarni o'z ichiga olgan bir necha qismdan iborat hujjat;

Talabgor-taklif etilgan shartlarda Tanlashda ishtirok etish niyatini bildirgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt;

TIY-Tanlash ishtirokchisining yo`riqnomasi; TMJ-Tanlashma'lumotlari jadvali;

Malaka hujjatlari-talabgor saralash bosqichidan o'tish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati;

Taklif-talabgorning Tanlash talablari va shartlariga muvofiq ishlarni amalga oshirish uchun roziligini ifoda etish shakli;

Ishtirokchi-Malakaviy tanlashidan o'tgan va Tanlashda ishtirok etishga ruxsat etilgan, g'olib deb topilgan taqdirda xizmatni ko'rsatish majburiyati mavjud bo'lgan talabgor;

G'olib-o'rganish, baholash va taqqoslash natijalari bo'yicha eng yaxshi taklifni taqdim etgan ishtirokchi;

Ishtirok etishni ta'minoti-uning amal qilish davrida o'z taklifini quyidagi shakllardan biri bilan ta'minlash kafolatini taqdim etish.

Baholash mezonlari-ishtirokchilarning takliflarini baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar;

Maxsus axborot portali (keyingi o'rinlarda Portal deb yuritiladi) — davlat xaridlarining o'tkazilishini, davlat xaridlari to'g'risidagi e'lonlarni, davlat xaridlari yakunlari to'g'risidagi axborotni, Tanlash ishtirokchilarining takliflarini va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa

ma'lumotlarni elektron ko'rinishda joylashtirish va ko'rish imkoniyatini, shuningdek, elektron davlat xaridlarini amalga oshirishni ta'minlovchi operatorning veb — sayti va maxsus elektron platformasi.

Birinchi qism

ISHTIROK ETISH UCHUN YO'RIQNOMA

I. Tanlash ishtirokchisi uchun yo`riqnoma

1. Umumiy qoidalar.

1.1. Ushbu xarid hujjatlari O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi O'RQ-684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Davlat buyurtmachisi (bundan buyon matnda "buyurtmachi" deb yuritiladi) Tanlash predmeti bo'yicha xizmatlar bajaruvchisini aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan xarid hujjatlari shartlarida xaridni (bundan buyon matnda "Tanlash predmeti" deb yuritiladi) amalga oshirishni rejalashtirmoqda.

1.3. Tanlash mavzusining nomi, Tanlash raqami, Tanlash turi, "buyurtmachi" ning manzili va aloqalari tanlash ma'lumotlari jadvalida (bundan buyon matnda TMJ deb yuritiladi) keltirilgan.

1.4. Tanlashda mulkchilik shaklidan qat'i nazar, yuridik shaxs, shu jumladan, Tanlash predmetiga o'xshash ish tajribasiga ega bo'lgan kichik biznes subyektlari ishtirok etishi mumkin.

Tanlashda xorijiy yuridik shaxslar (O'zbekiston Respublikasi norezidentlari) hamda mahalliy yuridik shaxslar (O'zbekiston Respublikasi rezidentlari) ishtirok etishi mumkin.

1.5. Tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchi:

a) Tanlash shartlari bilan tanishish uchun maxsus axborot portalida joylashtirilgan xarid hujjatlarining elektron versiyasini olishi (yuklab olishi);

b) ushbu TIY talablariga muvofiq malaka hujjatlarini va takliflarni taqdim etish.

1.6. Tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan har qanday hujjatlar va ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi va ushbu Tanlashga rasman aloqasi bo'lmagan shaxslarga xabar qilinmaydi.

2. Tanlashda ishtirok etishni ta'minoti kafolati-belgilangan qiymatdan 3%.

3. Tanlash tili, o'lchov birligi.

3.1. Ishtirokchi va buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladigan taklif va unga aloqador barcha yozishmalar va hujjatlar rus yoki o'zbek tillarida bo'lishi lozim. Taklif, uni rus yoki o'zbek tillariga tarjima qilinishi sharti bilan boshqa tilda bo'lishi mumkin. Agar taklif matnida bir nechta til ishlatilsa, rus yoki o'zbek tillari ustun deb hisoblanadi.

3.2. Taklifda metrik o'lchov tizimi qo'llanilishi kerak.

4. Xarid komissiyasi.

4.1. Xarid komissiyasi buyurtmachi tomonidan tuziladi va:

a) xarid hujjatlarini kelishadi;

b) takliflarni qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

v) talabgorlarga va takliflarga qo'yiladigan talablarni belgilaydi;

g) agar xarid qilish hujjatlari shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa, malakaviy Tanlash o'tkazadi;

e) agar lozim bo'lsa, dastlabki malakaviy Tanlash natijalariga ko'ra qaror qabul qiladi;

e) agar lozim bo'lsa, baholash guruhini tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi;

e) xarid qilish tartib-taomillarini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi;

g) xarid qilish tartib-taomillarining raqobatbardosh turlarini g'olibini aniqlaydi va zarur hollarda zaxira g'olibini belgilaydi yoki savdolarini o'tmagan deb topadi.

4.2. Xarid komissiyasining qarorlari xarid komissiyasi a'zolarining umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lganda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

4.3. Tanlash ishtirokchisi xarid komissiyasi a'zolari va buyurtmachiga hech qanday bosim o'tkazishga haqli emas.

5. Xarid qilish hujjatlarining tarkibi.

5.1. Ushbu xarid hujjatlari Tanlash ishtirokchisi uchun qo'llanma, texnik, narx qismlari va shartnoma loyihasidan iborat.

5.2. Shuningdek, xarid hujjatlari Tanlashda ishtirok etish uchun TMJ, qo'shimchalar va ilovalarni o'z ichiga oladi.

Qo'shimchalar quyidagi shakllardan iborat:

1. Shakl № 1
2. Shakl № 2
3. Shakl №3

5.3. Tanlashning texnik qismi texnik topshiriqqa muvofiq talablarni o'z ichiga oladi.

5.4. Xarid qilish hujjatlarining narx qismi baholash mezonlariga muvofiq talablarni o'z ichiga oladi.

5.5. Shartnoma loyihasi TMJ da ko'rsatilgan tilda tuzilgan.

5.6. Shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq talqin etiladi.

6. Takliflarni va Takliflar solingan konvertlarni rasmiylashtirish.

6.1. Ishtirokchi ikkita hujjat to'plamini (ikki nusxada) taqdim etishi kerak:

1. Shakl № 1
2. Shakl № 2
3. Shakl № 3

4. Texnik topshiriqning talablariga muvofiqligini tasdiqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlar.

6.2. Ishtirokchi o'z shaxsiy kabineti orqali elektron tanlov o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay elektron shaklda takliflar taqdim etadi.

6.3. Taklifning ajralmas qismi hisoblangan elektron hujjatlar operator tomonidan belgilangan formatlarda taqdim etiladi. Joylashtirilgan har bir elektron hujjat qatnashchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

6.4. Belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan hujjatlarni taqdim etish hujjatlarni noto'g'ri tayyorlash va taqdim etishning dalilidir, bunday holatlar xarid komissiyasi Majlisining bayonnomasida qayd etiladi va ishtirokchilar vakillariga yetkaziladi.

6.5. Ushbu yo'riqnomada keltirilgan maxsus shakllar va ilovalar, o'rnatilgan hujjatlar ishtirokchi tomonidan belgilangan tartibda imzolangan va rasmiylashtirilgan holda ushbu shakl va ilovalarga muvofiq taqdim etilishi kerak.

Ishtirokchi tomonidan tegishli tarzda imzolanmagan takliflar xarid komissiyasi qarori bilan rad etiladi, ushbu TIY da nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

6.6. Ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan barcha ma'lumotlar va hujjatlar ishonchli va to'liq bo'lishi lozim. Ishtirokchi taklifning ishonchligi va to'liqligi uchun javobgardir.

7. Takliflar berish.

7.1. Taklif elektron shaklda taqdim etiladi.

Ishtirokchi mijozga TMJda ko'rsatilgan kun va soatdan kechiktirmay taklifni taqdim etishi shart.

7.2. Taklifni taqdim etish sanasi buyurtmachi tomonidan elektron takliflarni qabul qilish sanasi hisoblanadi.

7.3. Ishtirokchining asosli iltimosiga binoan takliflarni taqdim etish muddatlarini uzaytirish masalasi xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin.

7.4. Xarid komissiyasi takliflarni taqdim etish va ko'rib chiqish muddatini uzaytirish to'g'risida, lekin barcha ishtirokchilarga nisbatan tatbiq etiladigan 10 kundan ortiq bo'lmagan muddatga qaror qabul qilishi mumkin.

7.5. Takliflarni taqdim etish va ko'rib chiqish muddati uzaytirilganligi to'g'risidagi xabarnoma maxsus axborot portaliga joylashtiriladi.

7.6. Belgilangan muddatdan keyin kelib tushgan takliflar ko'rib chiqilmaydi.

7.7. Taklifni taqdim etish ishtirokchi Tanlashning barcha shartlariga rozi ekanligini va xarid hujjatlari bo'yicha hech qanday kelishmovchilik va e'tirozlarga ega emasligini tasdiqlaydi.

7.8. Tanlash ishtirokchisi faqat bitta taklifni taqdim etishga haqli.

8. Taklifning amal qilish muddati va valyutasi, xizmat ko'rsatishning taxminiy muddati va ularni bajarish shartlari.

8.1. Ishtirokchilar taklifining amal qilish muddati takliflar berish muddati tugagan kundan boshlab TMJda ko'rsatilgan muddatdan kam bo'lmasligi kerak.

8.2. Barcha narxlar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi-so'mda ko'rsatiladi.

8.3. Ishlar TMJda ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmasdan bajarilishi lozim.

8.4. Ishtirokchi tanlash shartlarida nazarda tutilmagan xizmatlar ko'rsatishning boshqa shartlarini ko'rsatishga haqli emas.

9. Xarid qilish hujjatlariga o'zgartishlar kiritish.

9.1. Buyurtmachi xarid hujjatiga takliflar berish muddati tugaguniga qadar kamida 1 ish kunidan kechiktirmay o'zgartirishlar kiritish to'g'risida asosli qaror qabul qilishga haqlidir.

9.2. Xizmatlarning nomi, spetsifikatsiyasi va texnik talablar o'zgarishi, shuningdek xizmatlarning marginal qiymati o'zgarishiga yo'l qo'yilmaydi. Shu bilan birga, takliflar berish muddati kamida 3 ish kuniga uzaytirilishi kerak. Shu bilan birga, agar e'londa ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan bo'lsa, Tanlash e'loniga o'zgartirishlar kiritiladi.

9.3. Takliflar berish muddati tugagandan so'ng Tanlash shartlariga o'zgartirishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

9.4. Barcha o'zgarishlar xarid qilish hujjatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

10. Ishtirokchilarga tushuntirish, takliflarga qo'shimchalar kiritish va/yoki ko'rib chiqish.

10.1. Tanlash ishtirokchisi buyurtmachiga xarid hujjatlari shartlarini TMJ da ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay tushuntirish haqida ochiq elektron suhbat orqali so'rov yuborish huquqiga ega. Mazkur so'rov kelib tushgan sanadan boshlab ikki ish kuni mobaynida buyurtmachi xarid hujjatlari shartlarini belgilangan shaklda tushuntirish yuborishi shart.

10.2. Buyurtmachi belgilangan muddatdan keyin kelgan ishtirokchilarning so'rovlariga javob berishga haqli emas.

10.3. Takliflarni taqdim etish muddati tugaguniga qadar ishtirokchi o'z tashabbusi bilan Tanlashda ishtirok etish uchun ilgari taqdim etilgan taklifga o'zgartirish kiritish yoki qo'shimchalar kiritish huquqiga ega.

10.4. Agar ilgari taqdim etilgan taklifga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritilgan bo'lsa, ishtirokchi takliflarni taqdim etish muddati tugaguniga qadar kiritishi shart.

10.5. Takliflar berish muddati tugagandan so'ng taklifga kiritilgan o'zgartirish yoki qo'shimchalar qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.

11. Konvertlarni ochish, Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash.

11.1. Tanlash ishtirokchilaridan kamida ikkita taklif kelib tushgan taqdirda, takliflarni ko'rib chiqish va baholash amalga oshiriladi.

11.2. Taklifning texnik qismini miqdoriy ko'rsatkichlar asosida baholash, shuningdek taklifning narx qismini baholash elektron tizim tomonidan avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

Ishtirokchilarning takliflarini miqdoriy ko'rsatkichlarga (ekspert mezonlari) ega bo'lmagan taklifning texnik qismi mezonlari bo'yicha baholash va taqqoslash xarid komissiyasi tomonidan ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

11.3. Takliflarni baholash jarayonida xarid komissiyasining mas'ul kotibi ishtirokchilardan ularning takliflari yuzasidan tushuntirishlar so'rashi mumkin. Ushbu protsedura elektron shaklda amalga oshiriladi.

11.4. Xarid komissiyasi moliyaviy, texnik va ishlab chiqarish imkoniyatlarini, shuningdek Tanlash ishtirokchisining mavqeyi va tajribasini hisobga oladi.

Xarid komissiyasining qarori ishtirokchining o'zi taqdim etgan ma'lumotlarini, shuningdek, zarur deb topiladigan va Tanlash predmetiga taalluqli boshqa shunga o'xshash ma'lumotlarni o'rganishga asoslangan bo'ladi.

11.5. Ishtirokchilar quyidagi hollarda Tanlashda ishtirok etishdan chetlatiladi:

- ishtirokchi insofsiz ijrochilar yagona reestrda mavjud bo'lsa;
- soliq va yig'imlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lsa;

- ishtirokchining xarid hujjatlari malaka, texnik va tijorat qismlari talabga javob bermasa;
- ishtirokchi davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining har qanday joriy yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shaklda mukofot, ishga yollash to'g'risidagi taklif yoki boshqa qimmatli narsa yoki xizmatni davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisining har qanday xarid qilish tartib-taomilini amalga oshirishga, qaror qabul qilishga yoki qo'llashga ta'sir ko'rsatish maqsadida bevosita yoki bilvosita taklif etsa, bersa yoki berishga rozilik bersa;
- ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni amalga oshirsa yoki qonun hujjatlarini buzgan holda manfaatlar to'qnashuvi, shuningdek affillangan holatlar aniqlanganda.
- qayta tashkil etish, tugatish yoki ushlab turilgan (arrest) mol-mulkka bankrotlik bosqichida, shuningdek, bir-biriga to'g'ridan-to'g'ri tashkiliy-huquqiy yoki moliyaviy qaramlikka ega bo'lgan, ta'sis hujjatlari, moliyaviy ishtirok etish, xolding va boshqa shakllar shaklida ifodalanganda;
- buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha o'z vaqtidqa bajarilmagan majburiyatlarga ega bo'lsa;
- buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik muhokamasi holatida bo'lsa;
- faoliyatni amalga oshirish uchun tegishli ruxsatnoma mavjud bo'lmaganda (qarang: TMJ).

11.6. Xarid qilish hujjatlari talablariga sezilarli darajada javob bermaydigan taklif rad etiladi va tuzatilmaydi.

11.7. Xarid komissiyasi, agar ular boshqa Tanlash ishtirokchilarining reytingiga ta'sir qilmasa, takliflardagi ahamiyatsiz kamchiliklar va noaniqliklarni hisobga olmaslik huquqiga ega.

11.8. Xatolar mavjud bo'lgan taqdirda, xarid komissiyasi ishtirokchini xabardor qilgan holda taklifni rad etishga yoki, taklifni keyinchalik ko'rib chiqish shartlarini belgilashga haqli.

11.9. Arifmetik xatolar mavjud bo'lgan takliflar Tanlash ishtirokchisi tomonidan xarid komissiyasi talablariga muvofiq tuzatilishi kerak. Agar ishtirokchi xarid komissiyasi tomonidan taklif etilgan shartlarda o'z taklifidagi xatolarni tuzatishdan bosh tortsa, bunday ishtirokchining taklifi rad etiladi.

11.10. Elektron tizim taklifning texnik va narx qismlarini hisobga olgan holda eng ko'p ball to'plagan ishtirokchi g'olib sifatida avtomatik tarzda aniqlanadi.

12. Shartnoma tuzish.

12.1. Elektron tanlov natijalari bo'yicha shartnoma elektron shaklda tuziladi va elektron raqamli imzolar bilan imzolanadi.

12.2. Shartnoma loyihasi dastlabki hisoblanadi, shartlar Tanlash shartlariga zid bo'lmagan qismlarda tomonlarning kelishuvi bilan o'zgartirilishi mumkin.

13. Yakuniy qoidalar

13.1. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash natijalari elektron protokolda qayd etiladi va xarid komissiyasi a'zolari tomonidan elektron raqamli imzolardan foydalangan holda imzolanadi. Elektron protokoldan olingan ko'chirma maxsus axborot portalida avtomatik tarzda e'lon qilinadi.

13.2. Xarid komissiyasi tomonidan, quyidagi hollarda Tanlash o'tkazilmagan deb topilishi mumkin:

- a) takliflar berish muddati tugagunga qadar hech qanday taklif qabul qilinmaganda;
- b) Tanlashda ishtirok etish maqsadida ikkitadan kam taklif taqdim etilganda;
- v) taqdim etilgan barcha takliflarda kerakli hujjatlar to'plami mavjud bo'lmaganda.

13.3. Agar Tanlash amalga oshirilmasa, buyurtmachi tanlashni xarid qilish tartibini bir xil shartda va bir xil mezonlar va talablar bilan qayta amalga oshirish huquqiga ega. Zarur bo'lganda, baholash shartlari, mezonlari va talablarini o'zgartirish uchun xarid komissiyasi buyurtmachining asoslarini ko'rsatgan holda tegishli qaror qabul qiladi.

13.4. Tanlash o'tkazish bilan bog'liq nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

TANLASHNING ma'lumotlar jadvali

Ushbu bo'lim Tanlash predmetiga oid maxsus qoidalarni o'z ichiga oladi va xarid qilish hujjatlarining boshqa bandlari ma'lumotlarini yoki talablarini to'ldiradi

No.№	Bo'limning nomlanishi	Bo'limlar bo'yicha tushuntirishlar
1	Buyurtmachi	MCHJ "UZSUNGWOO" Q/K h/r: 20214000104910109001, "Asaka Bank" ATB Farg'ona shahri STIR:201907668 Bank kodi: 00539 h/r: 20214000804910109006, "Hamkor Bank" ATB Farg'ona shahri STIR:207274654 Bank kodi: 01155
2	Sotib olish predmeti	GEM loyihasi press qoliplari joylash uchun metal stelajlar yasash
3	Tanlash raqami	№
4	Tanlash turi	Ochiq
5	Tanlash manzili	Farg'ona shahridagi Aeroport-68 MCHJ "UZSUNGWOO" Q/K Aloqa uchun: +99897 502 72 28 Xaridlar bo'limi boshlig'i: Yusupov Inom
6	Xarid hujjatlarini olish manzili	Farg'ona shahridagi Aeroport-68 MCHJ "UZSUNGWOO" Q/K Aloqa uchun: +99897 502 72 28 Xaridlar bo'limi boshlig'i: Yusupov Inom
7	Tanlashda ishtirok etish uchun e'lon	quyidagi maxsus axborot portaliga joylashtiriladi: https://etender.uzex.uz/
8	Tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchilarga ruxsat beriladi	ishtirokchilar taklif etilgan shartlarda Tanlashda ishtirok etish niyatini bildirgan barcha manfaatdor tomonlar bo'lishi mumkin.
9	Litsenziyalanadigan ish turlari	O'zbekiston Respublikasi vakolatli organlarining litsenziyalari; ta'sis hujjatlari, texnik qo'llab-quvvatlash bo'yicha mutaxassislar, sertifikatlarining nusxalari.
10	Takliflarni taqdim etish shartlari	maxsus axborot portalida Tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon joylashtirilgan kundan boshlab 10 ish kuni mobaynida
11	Xarid hujjatlari bo'yicha tushuntirishlar uchun ishtirokchilarning murojaati muddatlari	Taklifni taqdim etish muddati tugaganigacha qadar 2 kun.
12	Xarid qilish hujjatlari tili	O'zbek va rus tillari
13	Taklifning amal qilish muddati	takliflar berish muddati tugagan kundan boshlab kamida 1 oy
14	Takliflar ochilishiga ishtirokchilar ruxsat etiladi	saralashdan o'tgan ishtirokchi ruxsat etiladi
15	Buyurtmachi tomonidan xizmat uchun o'rnatilgan narx qiymati	Loyiha qiymati 580 000 000 so'm, QQS siz

16	Buyurtmachi tomonidan belgilangan xizmat ko'rsatish muddati	Texnik topshiriqqa muvofiq.
17	Shartnomani bajarish	Ijrochi o'z ishini uchinchi tomon tashkilotlarini jalb qilgan holda bajarishi mumkin. Buyurtmachi ishni bajarilishini texnik shartlarga asosan to'liq nazoratga oladi va ish bajarilishini kuzatib boradi.
17	Moliyalashtirish manbai	buyurtmachining o'z mablag'lari
18	To'lov shartlari	1.To'lov buyurtmachi va Ijrochi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolanganidan so'ng 10 kalendar kun ichida amalga oshiriladi.
19	Shartnoma valyutasi	rezidentlar uchun-o'zbek so'mi nerezidentlar uchun-AQSh dollari
20	Shartnoma tili	Rus va o'zbek tilida

Shakl № 1

So'nggi 2 yil ichida aynan o'xshash xizmatlarni taqdim etish tajribasi haqida ma'lumot

№	Ishlarning nomi	Xaridorning nomi, uning manzili va aloqa ma'lumotlari	Ijro sanasi	Eslatma

Ma'lumot tuzilgan sana: " _____ " _____ 2022 y

MALAKALI MUTAXASSISLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOT

№	F.I.Sh, mutaxassis lavozimi	Malakani tasdiqlovchi hujjat (diplom, litsenziya, sertifikat va boshqalar. raqam, berilgan sana va amal qilish muddati)	Mutaxassisligi bo'yicha ish tajribasi

Xodimlarning malakasini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari (diplom, litsenziya, sertifikat va boshqalar) ilova qilinadi.

Ma'lumot tuzilgansana: " " 2022 y

MAXSUS TEXNIKA MAVJUDLIGI HAQIDA MA'LUMOT

№	Nomi	Texnikaga oid hujjatlar (texnik pasport va boshqalar. raqam, berilgan sana va amal qilish muddati bilan)	Ishlab chiqarish yili

Texnikaga hujjatlarning nusxalari (texnik pasport va boshqalar) ilova qilinadi.

II BOB.

NARX QISMI

I. Buyurtmachi tomonidan belgilangan narx

1.1. Buyurtmachi tomonidan belgilangan narx Tanlashning ma'lumotlar jadvalida (bundan buyon matnda TMJ deb yuritiladi) ko'rsatilgan.

II. Buyurtmachi tomonidan belgilangan xizmat ko'rsatish muddati

2.1. Tanlash predmeti bo'yicha barcha ishlar TMJ da ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay bajarilishi kerak.

III. Moliyalashtirish manbai

3.1. Ob'ektni moliyalashtirish TMJda ko'rsatilgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

IV. Moliyalashtirish shartlari

4.1. Moliyalashtirish va to'lov shartlari TMJda ko'rsatilgan.

4.2. To'lovlar buyurtmachi tomonidan Tanlash g'olibi bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4.3. Xizmat ko'rsatish shartnomasi me'oriy qoidalarga muvofiq bo'lishi kerak: O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni.

V. shartnoma valyutasi

5.1. Shartnoma valyutasi:

- rezidentlar uchun-o'zbek so'mi
- norezidentlar uchun-AQSh dollari

III Bo'lim.

BAHOLASH MEZONLARI

Ishtirokchilar va takliflarni malakaviy baholash tartibi va mezonlari.

Ishtirokchilarni saralash tartibi va mezonlari.

Malakaviy baholash Tanlash boshlanishidan oldin xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar talab qilinadigan ma'lumot ishtirokchi tomonidan taqdim etilmasa, komissiya uni Tanlashda ishtirok etishga yo'l qo'ymaslik huquqiga ega.

Takliflarni texnik va narx bo'yicha baxolash baholash.

Xaridkomissiyasitomonidantakliflarning texnikqismihujjatlariasosidaamalgaoshiriladi. Texnik baholash bo'yicha o'tmagan Tanlash ishtirokchilarining takliflari diskvalifikatsiya qilinadi.

№	Mezonning nomi	Baholash	Eslatma
1	Ruxsat beruvchi hujjatlarning mavjudligi	10	Baholash usuli ekspert, o'ta muhim-shart; talab mohiyati –ikki jihatli. Ishtirokchi ruxsatnoma nusxasini skanerlangan shaklda taqdim etishi lozim. 10 ball – mavjudligi 0 ball – mavjud emasligi
2	Ushbu ishni bajarish uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislarning mavjudligi	10	Baholash usuli-ekspert usulida, o'ta muhim-shart; mohiyati –ikki jihatli. Ishtirokchi hujjat nusxasini skanerlangan shaklda taqdim etishi lozim. 10 ball – mavjudligi 0 ball – mavjud emasligi
3	Shu kabi ishlarni bajarish tajribasi mavjudligi	10	Baholash usuli-ekspert usulida, o'ta muhim-shart; mohiyati –ikki jihatli. Ishtirokchi hujjat nusxasini skanerlangan shaklda taqdim etishi lozim. 10 ball – mavjudligi 0 ball – mavjud emasligi
4	Narx qismi uchun	15	Baholash usuli-ekspert usulida, o'ta muhim-shart; mohiyati –2 jihatli. 15 ball – eng yaxshi yaxshi narx uchun 0 ball – qolgan ishtirokchilarga
5	Narx qismi uchun	15	Baholash usuli-ekspert usulida, o'ta muhim-shart; mohiyati –2 jihatli. 15 ball – xizmat ko'rsatilgandan so'ng to'lov (to'lov kuniga qarab 10 ballgacha belgilanadi) 0 ball – Oldindan to'lov uchun

Texnik va narx qismini baholash natijalari bo'yicha maksimal ballar soni 60 balldan oshmasligi kerak. Ulardan texnik qism uchun 30 ball va narx qismi uchun 30 ball

G'olibning tijorat taklifida ko'rsatilgan texnik va narx mezonlari asosida shartnomani bajarish uchun eng yaxshi shartlarni taklif qilgan ishtirokchi g'olib deb e'tirof etiladi.

Agar takliflarni baholash natijalari bo'yicha ikki yoki undan ortiq ishtirokchi bir xil ball to'plagan bo'lsa, xarid komissiyasi a'zolarining o'zaro qaroriga asosan g'olib aniqlanadi